

THE IMPORTANCE OF INVESTING IN HUMAN RESOURCES

Norqulova D. Z.

PhD. Dots v.b.

Usmonov B. Sh.

IRB - 120-group

Note: This article is about the importance and prospects of investing in human capital, which includes the health, knowledge and skills, experience and lifestyle of the population.

Annotation: This article is about the importance and perspectives of investing in human capital, which includes health, knowledge and skills, experience and image of life.

Key words: resource, psychology, capital, investment, material, spiritual, incentive, privilege, education, economy, society, security.

O'zbekistonning xududiy boyligi, uning mehnatsevar, sahiy va mehmondo'st xalqidir.

(Islom Karimov)

Yigirma birinchi asrning bugungi kuniga kelib, jahonning barcha rivojlangan mamlakatlari aqlan, ruhan va jismonan sog'lom, shuningdek o'z sohasi bo'yicha raqobatbardosh inson resurslariga ehtiyoj sezmoqda. Shu sababli ham, allaqachon chet el mamlakatlarida inson resurslari, inson resurslarini boshqarish va inson resurslariga kapital ajratish anchagina rivolangan. Bizda esa, so'ngi yillarda inson resurslari nima va inson resurslariga investitsiya kiritish qay darajada to'g'ri degan savollar ommalashmoqda.

Inson resurslari nima?

Inson resurslari tushunchasi XX asrning so'ngida, yirik kompaniyalar yuqorida aytganimiz kabi, bilimli va moslashuvchan kadrlarga ehtiyoj seza boshlaganda vujudga keldi. Buning natijasida esa kardlar tayyorlash, ularni tog'ri yo'naltirish va ishchi kuchidan samarali foydalanish haqida o'ylay boshlashdi. Xodimlarning qobiliyatini oshirish maqsadida esa yirik sarmoyalar ajratildi. Shu bilan birga ishchilar oldiga qo'yiladigan talablar ham ortib bordi. Texnika taraqqiyoti tezlashishi natijasida, odamlar texnologik jarayonlarni nazarot qiluvchi va tartibga soluvchilariga aylandi. Mana shundan so'ng, insonlardan yangicha dunyoqarash, yangicha g'oya va yangicha fikrlash talab etila boshlandi.

Inson resursi – bu, bevosita inson omilining o'zidir. Inson resurslari iqtisodiyotda mehnat bilan band bo'lganlarni ham, hozirda ishsiz, ammo mehnat qilishi mumkin bo'lganlarni ham qamrab

oladi. Inson resurslarining boshqa resurslardan farqi, ular moddiy ne'matlar ishlab chiqaribgina qolmay, istemol ham qiladi. Insonlarda moddiy va ma'naviy ehtiyojlar yoshi, jinsi, irqi, sog'lig'i va boshqa ijtimoiy jihatlarga ko'ra turlicha bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inson resurslari iqtisodiy rivojlanish, milliy iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarishning hajmini oshirish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega, ammo mehnat resurslarini samamarali tashkil etishimiz uchun, inson omiliga resurs sifatida qabul qilishga va unga etibor qaratishga majburlamiz.

Inson kapitali nima?

Inson kapitali – investitsiyalar natijasida yuzaga kelgan bilim, ko'nikma va malakadan iborat bo'lib, u shaxsning aqliy, jismoniy va psixologik holat va qobiliyatini aks ettiradi.

Inson resurslarini boshqarish esa, yuqorida keltirilgan omillarni yaxshi o'zlashtirgan holda, inson resurslaridan tog'ri foydalanish va kerali yo'nalishga yo'naltirib, inson huquqlarini buzmaganda, ish samaradorligini oshirishdir.

Inson resurslariga investitsiya ajratishdan yagona maqsad, inson salohiyatini oshirishdir. Inson salohiyati esa avvalo uning bilimi va ko'nikmasi bilan, undan so'ng esa, hissiyotlar va ularni qay darajada boshqara olish bilan o'lchanadi. O'ylashimizcha, insonning bilimi, uni rivojlanishiga ko'mak bersa, hissiyotlarini boshqara olish, kerakli vaqtda mag'lubiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni to'g'ri tushunishi va bundan kerakli xulosalarni chiqarish, kutulmagan yutuqdan sergaklikni yo'qotmasligi, doimo ishiga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishini taminlaydi. Bularning bariga, yani saviyali va malakali kadrlarga esa, faqat ularga kapital kiritib va bir yumishni basharishga ixtisoslashgan texnika sifatida emas, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari mavjud, hayotda o'z ishtimoiy o'rniga ega inson sifatida qarashimiz kerak. Bizning mamlakatimizda, aksariyat, o'z vazifasini yaxshi bajargan xodimlarni rag'batlantirish maqsadida moddiy mablag' ajratiladi. Bu esa har doim ham o'zini oqlamaydi. Sababi, biz yuqorida takidlaganimizdek, inson – moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga ega mavjudotdir. Balki siz, moddiy rag'bat bermoqchi bo'layotgan xodimingiz, oilasi bilan sayohatga chiqmoqchi-yu, unda yetarli vaqt mavjud emasdir. Yoki, biror sanatoriyada dam olish uchun imtiyozli yo'llanma kerakdir. Shuning uchun, inson resurslarini rag'batlantirish vaqtida, xodimning rag'bat tog'risidagi shaxsiy fikrlarini bilish lozim deb o'ylaymiz. Inson kapitalining avzal tomonlaridan yana biri shundaki, u malum bir avlod bilan chegaralanib qolmaydi. Masalan, ayollarga, farzand parvarishi haqida berilgan bilimlar, o'sha oilada qachondir dunyoga kelishi kutilayotgan bolaning taqdirini hal qiladi.

Inson resurslariga kiritilayotgan investitsiyaning asosiy qismini ta'lim sifatini oshirishga sarflash kerak. Ta'lim sohasiga kiritilgan kapital qay darajada ahamiyatli ekanini Gana tarixi isbotlaydi.

Bu davlatni misol keltirganing asosiy sababi, u 1990-yildan 2000-yigacha, mamlakat ta'limiga ketadigan xarajatlarni ikki barobarga ko'paytirish orqali asosiy ko'rsatkichlarni keskin ko'tarib oldi. Natijaga nazar soladigan bo'lsak, 1999-yildan, 2012-yilgacha savodxonlik darajasi 64 % ga yetib, mamlakatdagi qashshoqlik 61 % dan 13 % ga tushurildi(1).

Odatda hukumat iqtisodiy o'sishga intilganida fizik kapital, yani mehmonxonalar, yangi istirohat bog'lari va shunga o'xshash infratuzulmalarni bunyot etishga harakat qiladi. Aksariyat hollarda esa, aholining savodxonligi va salomatlik darajasini oshirish, tajriba va turmish tarzini yaxshilashga xizmat qiluvchi inson kapitaliga investitsiya kiritishga unchalik etibor berishmaydi. Ammo, 2010-yilda Michiganda ishlab chiqilgan maktabgacha ta'lim dasturlaridan birining samaradorligi, har bir dollar 7 dollardan 12 dollargacha foyda shaklida qaytgani isbotlangan(2). Fikrimizni xulosalab shuni aytishimiz mumkinki, inson kapitali deganda faqatgina moddiy kapitalni tushunmasligimiz va kapitalni faqat davlat kiritadi degan tushunchadan vos kechishimiz kerak. Yani, bizning taklifimiz, inson kapitalining O'zbekiston loyihasi shakillantirilib, uning ishlashi davlat tomonidan nazoratga olinishi kerak. Loyihaning asosiy mohiyati, insonlarga kapital kiritishning ahamiyati, uning biroz muddatdan so'ng foyda shaklida qaytib kelishini oilalarga mahalla va sektorlar orqali singdirishimiz kerak. Natijada, davlat ortiqcha mablag' sarflamasdan, mamlakatdagi ko'p miqdordagi aholini kapital bilan taminlaydi. Inson kapitalini rivojlantirish, nafaqat iqtisodiyotni, balki insonlarning dunyoqarashi va fikrlarini, jamiyatni va shu jamiyat ichidagi ijtimoiy holatni anchagina barqarorlashtirishi mumkin. Davlatlar, inson rusurslariga samarali investitsiya kirita olmas ekan, o'sha davlatda kambag'allikni kelib chiqishi keskin ortadi. Katta xarajatlarni talab etuvchi xizmatlardan fuqarolarning foydalana olmasliklari natijasida jamiyatda tengsizlik vujudga kelishi va bu tabaqalanish xavfsizlik holatiga ham qanchadir miqdorda o'z tasirini o'tqazishi mumkin.

Foydalanilgan manba:

- 1) 1,2 - <https://xs.uz/uz/post/inson-kapitalini-rivozhlantirishdagi-uzilishlar> Murojat etilgan sana: 06.02.2021
- 2) Abduraxmonov Q.X. va boshqalar "Davlat xizmati personalini boshqarish" –T.:2002.